



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

---

**АГПИ**  
**Научный вестник**



ANDIJON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI

## ADPI Ilmiy xabarnomasi

**№ 2 2026** **aprel**

**Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2181-4309**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-  
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy  
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga  
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik  
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida  
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida  
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

**Murojaat uchun:**

**Telegram:** ADPIilmiyxabarnoma\_bot

**Electron manzil:** [eduservis@gmail.com](mailto:eduservis@gmail.com)

**2/2**

### **BOSH MUHARRIR:**

**B.M. Rasulov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

### **Mas'ul muharrir:**

**B.A. Sirojiddinov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

### **TAHRIR KENGASHI**

**S.Z. Zaynobiddinov**- O'zRFA akademigi

**I.R. Asqarov**- kimyo fanlari doktori, professor

**Sh.X. Yo'lchiyev**- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

**A.E. Zaynobiddinov**- biologiya fanlari doktori, professor

**B.X. Amanov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.A. Egamberdiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**M.V. Xalimova**- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.J. Yusupova** - pedagogika fanlari doktori, professor

**Z.E. Azimova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.B. Artiqova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**V.A. Qodirov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**N.J. Abdullayeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.A. Tojiboyeva** - filologiya fanlari doktori, professor

**Sh.A. Xaitov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

**A.G. G'aniyev**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.K. Pozilov** -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**T.T. Kaziyeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**U.A. Usmanova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**A.Xakimov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**M.T.Parpiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.A. Zapparov**- texnika fanlari nomzodi, professor

**U.A. Saliyev**- tarix fanlari nomzodi, professor

**M.I. Israil**- filologiya fanlari doktori, professor

**L.A. Muxammadjonova**- falsafa fanlari nomzodi, professor

**Sh.A. Xasanov** - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**X.T. Komilova** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**M.Sh. Alimova** - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Q. Ibaybullayev**- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D'.M. Muxtarov**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.N. Yusupova**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**B.M. Do'monov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.A. Tajimirzayev**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**K.S. Karimov** - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.A. Yuldashyev**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.J. Abduraxmonova** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.M. Muydinova**- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**J.B. Qoraboyev**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**N.T. Mo'yidinov**- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Sobirova**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.B. Abdullayev**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**G'.Sh. G'ulomov**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**L.S. Yunusov** - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**N.S. Yaqubov**- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

**M.I. O'rinboyev**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**U.Sh. Uktamov** - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**M.G'. Ergasheva** - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

**Muharrirlar:**

**O. Karimov,**

**U. Malikova,**

**B. Mashrabova.**

# MUNDARIJA

## PEDAGOGIKA

<b>Artikova M.B., Turaboyeva M.R.</b> Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida .....	4
<b>Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	9
<b>Hasanov Sh.A.</b> Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida .....	15
<b>Shabdullayeva L.O.</b> Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari .....	20
<b>Agzamova N.O.</b> Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri .....	30
<b>Matmusayev T.M.</b> Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi .....	35
<b>Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z.</b> Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi .....	42
<b>Alimov J.A., Shermuhammedov M.</b> Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish .....	47
<b>Axunov U.R.</b> Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash .....	51
<b>Shabdullayeva L.O.</b> Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari .....	55
<b>Karimova M.M.</b> Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni .....	62
<b>Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'.</b> Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	67
<b>Hasanov Sh.A.</b> Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida .....	71
<b>Ismonov X.B., Azimjonova U.Z.</b> Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati .....	78
<b>Maxmudov A.O.</b> Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish .....	84
<b>Abduraxmonova D.Sh.</b> Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari .....	89
<b>Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U.</b> Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari .....	93
<b>Madaminova G.G.</b> Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari .....	100
<b>Mashrabova B.N.</b> Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language .....	106
<b>Nishonov N.A.</b> O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari .....	111
<b>Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L.</b> Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati .....	115
<b>Uraimov S.R., Xakimjonov M.X.</b> Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish .....	120
<b>Yoqubjonov N.G'.</b> Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish .....	126
<b>Jo'rayeva D.I.</b> Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi .....	130

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<b>Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A.</b> Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar .....	135
<b>Raximova Z.X.</b> Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida .....	142
<b>Uzaqova N.M.</b> Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari .....	149
<b>Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M.</b> Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash .....	153
<b>Mutallibjonov U.I.</b> Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni .....	157

## ANIQ VA TABIIY FANLAR

<b>Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A.</b> Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	162
<b>Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш.</b> Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий .....	169
<b>Umarov A.V.</b> Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari .....	173
<b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....	179
<b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....	183
<b>Mamadaliyev B.K.</b> Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....	187
<b>Jamoldinova D.A.</b> Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi .....	192
<b>Ablazova K.S.</b> Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi .....	196

UO'K: 342.56(575.1)

## YANGI O'ZBEKISTONDA SUD HUQUQ TIZIMIDAGI ISLOHATLAR

**Rasulov Baxtiyor Mahmudjonovich, Abduraxmanov Alisher Abdurashidovich**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

### Annotatsiya.

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida sud-huquq tizimini tubdan isloh etish jarayonlari, ularning mazmun-mohiyati hamda amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Xususan, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovga erishish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish, sud jarayonlarini raqamlashtirish hamda advokatura institutining rolini oshirishga qaratilgan islohotlar tizimli yoritilgan. Shuningdek, sud-huquq sohasidagi yangilanishlarning jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqiy davlat barpo etishdagi o'rni asoslab berilgan

### Kalit so'zlar:

*sud-huquq islohotlari, sud mustaqilligi, huquqiy tizim, adliya tizimi, raqamli sud tizimi.*

### Аннотация.

В данной статье с научной точки зрения проанализированы процессы коренного реформирования судебно-правовой системы в условиях Нового Узбекистана, их сущность и практическое значение. Особое внимание уделено вопросам обеспечения независимости судебной власти, надежной защиты прав и свобод граждан, а также совершенствованию механизмов достижения справедливого правосудия. В статье системно освещены реформы, направленные на укрепление открытости и прозрачности деятельности судов, цифровизацию судебных процессов, повышение роли института адвокатуры, а также нормативно-правовые акты, принятые в последние годы. Кроме того, обоснована роль обновлений в судебно-правовой сфере в обеспечении верховенства закона и построении правового государства в обществе.

### Ключевые слова:

*судебные реформы, Независимость судов, Правовая система, Система правосудия, Цифровая судебная система.*

### Abstract.

This article provides a scholarly analysis of the processes of comprehensive reform of the judicial and legal system in the context of the New Uzbekistan, their essence, and practical significance. Particular attention is paid to ensuring the independence of the judiciary, reliably protecting the rights and freedoms of citizens, and improving mechanisms for achieving fair justice. The article systematically examines reforms aimed at enhancing openness and transparency in judicial activities, digitizing judicial proceedings, strengthening the role of the legal profession, as well as the normative legal acts adopted in recent years. Furthermore, the role of reforms in the judicial and legal sphere in ensuring the rule of law and building a legal state in society is substantiated.

### Keywords:

*judicial reforms, Judicial independence, Legal system, Justice system, Digital court system.*

**Kirish.** So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar milliy davlat boshqaruvi va huquqiy tizimning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Xususan, sud-huquq tizimidagi islohotlar mamlakatda adolatni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda sud organlarining mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlardan biridir. Yangi O'zbekiston konsepsiyasi asosida olib borilayotgan sud-huquq islohotlari, nafaqat sud tizimining samaradorligini

oshirish, balki raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali adliya xizmatlarini yanada oshkoralik va tezkorlik bilan ta'minlash imkonini yaratmoqda.

Sud organlarining mustaqilligini ta'minlash, huquqiy tizimni modernizatsiya qilish, shuningdek, fuqarolar va biznes subyektlariga xizmat ko'rsatishda sifatni oshirish davlatning asosiy strategik yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan, sud-huquq tizimidagi islohotlarning samaradorligi, ularning amaliyotga tatbiq etilishi va xalqaro tajribaga moslashuvi dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuning dolzarbligi. Sud-huquq tizimidagi islohotlar bugungi kunda Yangi O'zbekistonning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki sud tizimi davlatning huquqiy asoslarini mustahkamlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, adolatni amalga oshirishdagi eng muhim institut sifatida xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatda olib borilayotgan islohotlar global standartlarga mos, shaffof va samarali sud tizimini yaratishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbligi bir nechta jihatlar bilan belgilanadi: birinchidan, sud-huquq tizimidagi islohotlar milliy huquqiy tizimni modernizatsiya qilish va davlat boshqaruvidagi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi; ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sud xizmatlarini tezkor va qulay qilish imkonini yaratadi; uchinchidan, sud mustaqilligi va huquqiy adolatni ta'minlash orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga hissa qo'shadi.

**Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.** "O'zbekistonda sud-huquq tizimidagi islohotlarning huquqiy, tashkiliy va amaliy yo'nalishlarini yoritadi. D.F.Abdusamadov sud tizimini modernizatsiya qilish, sud mustaqilligini mustahkamlash va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan hamda sud jarayonlarining oshkoraligi muhimligi qayd etilgan [1]. M.R.Topildiyeva mustaqillik yillarida sud tizimidagi demokratik va huquqiy o'zgarishlarga e'tibor qaratadi; bu islohotlar sud hokimiyati institutining davlat boshqaruvidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilayotgani ta'kidlangan [2]. A.A.Kosimova Sud tizimining raqamlashtirilishi zamonaviy islohotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida ko'riladi. Ilmiy maqolalarda elektron hujjatlar, onlayn sud ishlarini o'tkazish va shaffoflikni oshirish sud jarayonlarini samarali qilishga yordam berayotgani qayd etilgan [3].

Natija va mulohazalar. Yangi O'zbekistonda sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish jarayoni davlatning huquqiy-demokratik rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur islohotlar mustahkam normativ-huquqiy asosga ega bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, sud-huquq sohasini tartibga soluvchi qonun hujjatlari orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu huquqiy hujjatlar sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, adolatli sudlovni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan tizimli yondashuvni belgilab bermoqda.

Sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash Yangi O'zbekiston sud-huquq islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada sudlarning ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatdan tashkiliy-huquqiy jihatdan mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, sudyalarni tanlash, tayinlash va lavozimga tasdiqlash tartib-taomillarini takomillashtirish, ularning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, sudyalar daxlsizligini kafolatlash bo'yicha aniq mexanizmlar joriy etilmoqda. Bu esa sud qarorlarining qonuniyligi va xolisligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, sud tizimini demokratik tamoyillar asosida qayta tashkil etish jarayonida sud ishlarini yuritishda oshkoralik, taraflarning tengligi, tortishuvchanlik va aybsizlik prezumpsiyasi kabi fundamental prinsiplarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sud-huquq islohotlarining markaziy vazifasi sifatida e'tirof etilib, fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, sud jarayonlarining soddalashtirilishi va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, Yangi O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari nafaqat sud hokimiyatining institutsional mustahkamlanishini, balki jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda fuqarolarning davlatga va sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon mamlakatda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi muhim qadam sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sud mustaqilligi va adolatni ta'minlash mexanizmlari. Sud mustaqilligi huquqiy davlatning ajralmas belgisi bo'lib, Yangi O'zbekistonda ushbu tamoyilni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Sudyalar faoliyatiga aralashuvning oldini olish, ularning ijtimoiy-huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, sud qarorlarining qonuniyligi va adolatligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada sud organlarining jamiyatdagi nufuzi oshib, fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanmoqda [4].

Sud-huquq tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi. Zamonaviy sud-huquq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sud tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda raqamli sud tizimini shakllantirish davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, sud jarayonlarining ochiqligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan muhim strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali sud ish yurituvini soddalashtirish, sud xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish ko'zda tutilmoqda.

Sud tizimida elektron sud ish yurituvi, onlayn ariza va murojaatlarni qabul qilish, masofaviy sud majlislarini o'tkazish, shuningdek, elektron hujjat aylanishi tizimlarining joriy etilishi sud jarayonlarining tezkorligi va shaffoqligini sezilarli darajada oshirmoqda. Bu texnologiyalar sud ishlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish, ortiqcha hujjatbozlik va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda sud qarorlarining ijrosini nazorat qilish imkonini

bermoqda. Natijada, sud organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari yanada mustahkamlanmoqda.

Raqamli sud tizimi inson omilini minimallashtirish orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish, sud jarayonlarida subyektiv yondashuvlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, fuqarolarning sudlarga murojaat qilish jarayonini qulay va tushunarli qilish, hududiy masofa va vaqt bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish imkonini yaratmoqda. Ayniqsa, masofaviy sud majlislari va elektron xizmatlar aholining turli qatlamlari uchun sud adolatidan foydalanish imkoniyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi sud-huquq tizimining umumiy samaradorligini oshirish, sudyalarning va sud xodimlarining ish yuklamasini optimallashtirish hamda sud faoliyatini tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon Yangi O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va adolatli sud tizimini shakllantirish yo'lidagi muhim bosqichlardan biri sifatida e'tirof etiladi [5].

Sudlar tuzilmasi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirildi. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini ta'minlash maqsadida davlat organlari qarorlari va mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan beriladigan shikoyatlarni, ya'ni ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqishga vakolatli ma'muriy sudlar tashkil etildi.

Sudlar tuzilmasi ham zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib, viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan holda viloyat darajasidagi umumiyurisdiksiya sudlari tashkil etildi.

Investorlar huquqlarini sud orqali himoya qilishning samarali tizimini yaratish maqsadida protsessual qonunchilikka iqtisodiyot sohasida investorlar hamda davlat organlari o'rtasidagi investitsiya shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar va raqobatga oid ishlarning sudlovga taalluqliligiga oid normalar kiritilib, yirik investorlarga taalluqli nizolar va raqobatga oid ishlar, taraflarning xohishiga ko'ra, Oliy sudning investitsiyaviy nizolarni hamda raqobatga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sudlov tarkibi tomonidan ko'rilishi mumkinligiga oid tartib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, sudyalarning hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi tashkil etildi.

Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni saralash va tayinlashning yangi tartib-taomillari, ya'ni sudyalik lavozimiga birinchi marotaba besh yil muddatga va keyin o'n yil muddatga,

shundan so'ng muddatsiz tayinlash (saylash)ni nazarda tutuvchi tartib joriy etilishi sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida "Xabeas korpus" instituti kengaytirilib, tergov ustidan sud nazorati yanada kuchaytirildi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish uchun sanksiya berish vakolatining sudlarga o'tkazilishi bu boradagi dastlabki qadamlar bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda bu islohotlar yanada jadallashdi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish, murdani eksqumatsiya qilish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish uchun sanksiya berish huquqi ham prokurorlardan sudlarga o'tkazildi. Sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad etgan taqdirda boshqa muqobil ehtiyot choralarini qo'llash huquqi berildi.

Sudda ish yuritish tezkorligi va sifatini oshirish, ish bo'yicha yakuniy qarorlar qabul qilish muddatlarini asossiz kechiktirishni bartaraf etish, sudlarning jinoyat protsessidagi rolini oshirish maqsadida sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi.

Eng muhimi, sud ishlarini yuritishda yangi institutlar joriy qilindi, mavjudlari takomillashtirildi. Jumladan, jinoyat protsessida yarashuv instituti kengaytirilib, u sud jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanadigan bo'ldi. Jinoyat ishi bo'yicha — dastlabki eshituv, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda — sudgacha majlis, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish, mediatsiya institutlari joriy qilindi.

Shuningdek, so'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish borasida salmoqli ishlar qilindi.

Masalan, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llashning, shuningdek dastlabki tergovning eng ko'p muddati 1-yildan 7 oyga qisqartirildi.

Shaxsga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash bilan bog'liq qilmishlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy qilinib, bunday qilmishlar uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Dalillarni soxtalashtirganlik (qalbakilashtirganlik) uchun jinoiy javobgarlik belgilanib, qonunga xilof usullar orqali olingan dalillardan, shu jumladan noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan olingan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanish ta'qiqlandi.

Bundan tashqari, fuqarolarning jinoyat protsessiga ortiqcha jalb qilinishini kamaytirish, murakkab bo'lmagan ishlar bo'yicha ish yuritishni qisqartirish maqsadida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar bo'yicha aybini bo'yniga olish to'g'risida

arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan bildirilgan iltimosnomaga asosan jinoyat ishini yuritishni nazorat qiluvchi prokuror bilan tuziladigan aybiga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv instituti kiritildi.

Amalga oshirilgan sud-huquq sohasidagi institutsional islohotlar doirasida mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning huquq va erkinliklariga rioya etish, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilganligiga ham alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi jazo tizimidagi qamoq tarzidagi jazo turi tugatilib, uning o'rniga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan majburiy jamoat ishlari turi kiritildi.

Insoniylik nuqtayi nazaridan, voyaga yetmagan mahkumlarning yaqinlari bilan uchrashish huquqiga nisbatan bo'lgan cheklovlar bekor qilindi. Mahkuma ayollarning o'z farzandlari bilan uchrashishining alohida tartibi belgilandi va mahkumlarning uchrashuvlari hamda telefon orqali muloqotlari soni ko'paytirildi.

Ayniqsa, Qoraqalpog'iston IIVga qarashli 19-ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasi ("Jasliq" koloniyasi)ning tugatilishi ham xalqaro maydonda O'zbekiston imijini ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birga, afv etish tizimining yo'lga qo'yilgani va izchil tarzda davom ettirilayotgani mamlakatda olib borilayotgan islohotlar insonparvarlik tamoyillariga to'liq mos ekaniga dalildir.

Ana shunday insonparvar siyosat tufayli o'tgan qisqa davrda mamlakatimizda mahbuslar soni ikki barobar kamayishiga erishildi. Birinchi marta ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga berilgan jazo yengilrog'iga almashtirilsa, u manzil-koloniyaga o'tkazilmasdan, to'g'ridan to'g'ri probatsiya nazoratiga olinishi, mazkur yengillik natijasida hozir jazo o'tayotgan 6 ming nafar shaxsga o'z mahallasi nazoratida, oilasi bag'rida bo'lish imkoniyati yaratildi.

Xalqaro e'tirof etilgan "Xabeas korpus" institutining qo'llanish ko'lami yanada kengaytirildi. Ilk bor shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, sukut saqlash huquqi berildi. Bu orqali xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi" ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'z aksini topib, fuqarolarimiz huquqlarini himoya qilishning zamonaviy usullarini o'zida mujassam etgan mexanizmlar joriy qilindi.

Shuningdek, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilanib, bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, uning sha'ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma — agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo'yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Sud-huquq islohotlarining ijtimoiy-huquqiy ahamiyati. Sud-huquq tizimidagi islohotlar jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini ishonchli himoya qilish, ma'muriy va iqtisodiy nizolarni adolatli hal etish orqali investitsion muhitni yaxshilashga erishilmoqda. Shu bilan birga, sud-huquq islohotlari demokratik jamiyat barpo etish yo'lidagi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish jarayoni huquqiy davlat va adolatli jamiyat barpo etishga qaratilgan izchil va tizimli siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash, sud jarayonlarida qonun ustuvorligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilmoqda. Sud tizimining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish va demokratik tamoyillar asosida qayta tashkil etish sud organlarining samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam huquqiy zamin yaratmoqda.

Sud-huquq tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi sud ish yurituvchi jarayonlarini soddalashtirish, ularning shaffofligi va tezkorligini oshirish bilan bir qatorda, inson omilini kamaytirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Elektron sud xizmatlari va masofaviy sud majlislari fuqarolarning sud adolatidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, sud tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umuman olganda, Yangi O'zbekistonda sud-huquq tizimidagi islohotlar ijtimoiy adolatni ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu islohotlarni izchil davom ettirish, sud tizimida innovatsion yondashuvlarni yanada rivojlantirish va xalqaro huquqiy tajribani keng joriy etish mamlakatda adolatli, ochiq va samarali sud-huquq tizimini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdusamadov D.F. Sud hokimiyatidagi islohotlarning jamiyat barqarorligi tizimiga qo'shgan hissasi <https://journal.uznauka.uz/index.php/lawpolicy/index>
2. Topildiyeva M.R. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sud tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar. Ijodkor o'qituvchi jurnali. 5 Yanvar / 2024 YIL / 35 –SON 44-47 bet
3. Kasimova, A. (2024). Sud tizimidagi yangi islohotlar, sud-huquq tizimining raqamlashtirilishi. *Modern Science and Research*, 3(12), 210–215. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/49446>
4. Vohidov S. (2025). O'quv vaziyatlarini vitagen ta'limga integratsiya qilishning ahamiyati. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(13), 61–65.
5. To'xtashev Sh. (2023) Sud-huquq sohasidagi islohotlar inson qadriga qaratilgan. Retrieved from <https://parliament.gov.uz/oz/articles/1554>

